

**VAZIRLIK VA IDORALARDA FUQARO MUHOFAZASI XODIMLARINI
TAYYORLASH VA QAYTA TAYYORLASH TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH**

(Fuqaro muhofazasi instituti katta o'qituvchisi

Abduraxmanov Sobirjon Shukurovich)

**СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ СИСТЕМЫ ПОДГОТОВКИ И ПЕРЕПОДГОТОВКИ
КАДРОВ В ОБЛАСТИ ГРАЖДАНСКОЙ ЗАЩИТЫ В МИНИСТЕРСТВАХ И
ВЕДОМСТВАХ**

(Абдурахманов Собиржон Шукурович,

старший преподаватель Института гражданской защиты)

**IMPROVING THE SYSTEM OF PERSONNEL TRAINING AND RETRAINING IN
THE FIELD OF CIVIL PROTECTION WITHIN MINISTRIES AND AGENCIES**

(Abdurakhmanov Sobirzhon Shukurovich,

Senior Lecturer, Institute of Civil Protection)

Annotatsiya. Maqolada vazirlik va idoralarda fuqaro muhofazasiga mas'ul xodimlarni tayyorlash va qayta tayyorlash tizimining huquqiy, tashkiliy va pedagogik jihatlari tadqiq etilgan. Amaldagi davriy kurslardan kompetensiyaga asoslangan uzluksiz kasbiy rivojlanish modeliga o'tish zarurati asoslangan. Lavozi va xavf profili bo'yicha modulli dastur, aralash ta'lim, ssenariyli mashq, yagona raqamli portfolio, mustaqil baholash hamda mashqdan keyingi takomillashtirish rejasini birlashtiruvchi mexanizm taklif etilgan. Tayyorgarlik samaradorligini bilim emas, amaliy harakat, muvofiqlashuv, vaqt va xatolar dinamikasi orqali baholash ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: fuqaro muhofazasi, kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash, malaka oshirish, kompetensiya, ssenariyli mashq, aralash ta'lim, baholash, raqamli portfolio, vazirlik va idoralar.

Аннотация. В статье исследованы правовые, организационные и педагогические аспекты подготовки и переподготовки работников гражданской защиты в министерствах и ведомствах. Обоснован переход от периодических курсов к непрерывному развитию компетенций. Предложена модель, объединяющая модульные программы по профилю должности и риска, смешанное обучение, сценарные учения, цифровое портфолио, независимую оценку и план совершенствования.

Ключевые слова: гражданская защита, подготовка кадров, переподготовка, компетенции, учения, смешанное обучение, оценка.

Abstract. The article examines the legal, organizational and pedagogical aspects of training and retraining civil protection personnel in ministries and agencies. It substantiates a shift from periodic courses to continuous competency development. A model combining role- and risk-based modules, blended learning, scenario exercises, a digital portfolio, independent assessment and improvement planning is proposed.

Keywords: civil protection, personnel training, retraining, competency, exercises, blended learning, evaluation.

Kirish. Favqulodda vaziyatlar sharoitida vazirlik va idoralarning barqaror ishlashi faqat maxsus texnika yoki rejalar mavjudligiga emas, balki fuqaro muhofazasiga mas'ul xodimlarning vaziyatni to'g'ri baholashi, boshqaruv qarorini qabul qilishi va idoralararo hamkorlikni tashkil eta olishiga bog'liq. Xodim normativ hujjatni bilishi mumkin, ammo stress, vaqt tanqisligi va axborot noaniqligi sharoitida uni amalga tatbiq etish kompetensiyasi alohida tayyorgarlikni talab qiladi. Shu sababli ta'limning natijasi "kursni o'tadi" degan yozuv emas, balki belgilangan ssenariyda vazifani xavfsiz va o'z vaqtida bajara olish qobiliyati bo'lishi lozim.

O'zbekiston Respublikasining "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi Qonuni davlat organlari va tashkilotlarning sohadagi vakolatlarini belgilaydi [1]. Vazirlar Mahkamasining 754-son qarori aholi qatlamlari, rahbarlar va mas'ul mutaxassislarni tayyorlash shakllari hamda davriyligini tartibga soladi; respublika

va viloyat miqyosidagi mas'ullar uchun Fuqaro muhofazasi institutida har uch yilda malaka oshirish nazarda tutilgan [2]. 2025 yilgi islohotlar tayyorlash tizimini tubdan takomillashtirish vazifasini belgiladi [3], 2026 yil 3 apreldagi PQ-123-son qaror esa FVV Akademiyasi, Fuqaro muhofazasi instituti va Malaka oshirish markazining yangi institutsional vazifalarini mustahkamladi [4].

Tadqiqot maqsadi - vazirlik va idoralarda fuqaro muhofazasi xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlashning kompetensiyaga asoslangan, uzluksiz va natijasi o'lganadigan modelini ishlab chiqish. Tadqiqot obyekti - fuqaro muhofazasi bo'yicha kadrlar tayyorlash jarayoni; predmeti - o'quv ehtiyojini aniqlash, dastur mazmuni, o'qitish usullari, mashqlar va baholash mexanizmlaridir. Ilmiy yangilik lavozim - xavf - kompetensiya matritsasini yagona raqamli portfolio va mashqdan keyingi takomillashtirish sikli bilan bog'lashdan iborat.

Adabiyotlar tahlili. Milliy huquqiy bazada tayyorgarlikning tashkiliy shakllari: qo'mondonlik-shtab, maxsus-taktik va kompleks o'quv mashqlari, obyektlar mashg'ulotlari hamda malaka oshirish kurslari belgilangan [2]. Ushbu yondashuv qamrov va davriylikni ta'minlaydi. Biroq faqat kalendar reja va o'quv soatiga asoslangan nazorat xodimning real vazifani bajarish qobiliyatini to'liq aks ettirmaydi. Lavozimlar turlicha: vazirlik markaziy apparatidagi muvofiqlashtiruvchi, obyektidagi muhandis, navbatchi dispetcher va evakuatsiya guruhi rahbari uchun bir xil mazmun va baholash mezonlari samarasiz bo'lishi mumkin.

Xalqaro amaliyotda ISO 22398:2013 tashkilotlarga mashqlarni rejalashtirish, o'tkazish va takomillashtirish bo'yicha tavsiyalar beradi [5]. FEMAning Homeland Security Exercise and Evaluation Program (HSEEP) doktrinasi mashq dasturini boshqarish, dizayn, o'tkazish, kuzatish, natijalarni baholash va takomillashtirish rejasini yagona siklga birlashtiradi [6]. HSEEPda baholash mashq bilan takomillashtirish rejasini o'rtasidagi funksional ko'priklari sifatida qaraladi [7]. ISO 22325 tashkilotning favqulodda vaziyatlarga tayyorlik salohiyatini baholashga yo'naltirilgan bo'lib, o'quv natijasini tashkiliy qobiliyat bilan bog'lash imkonini beradi [8].

Kattalar ta'limi nuqtayi nazaridan tajribali xodim tayyor nazariy ma'lumotni emas, o'z ish joyidagi muammoni hal qilishga xizmat qiluvchi keylar va amaliy vazifani samarali o'zlashtiradi. Shuning uchun masofaviy mikrokurs nazariy bilimni, auditoriya muhokamasi idoralararo qarorni, trenajyor va poligon esa harakat ko'nikmasini shakllantirishi kerak. Adabiyotlar tahlilidan kelib chiqadigan asosiy xulosa - tayyorlash tizimi "o'qitish"dan "kompetensiyani boshqarish"ga o'tishi zarur.

Tadqiqot metodologiyasi. Tadqiqotda normativ-huquqiy tahlil, tizimli yondashuv, funksional dekompozitsiya, kompetensiyalarni modelashtirish va qiyosiy tahlil usullari qo'llanildi.

Birinchidan, milliy hujjatlardagi subyektlar, tayyorlash davriyligi va mashqlar shakllari ajratildi.

Ikkinchidan, ISO 22398, ISO 22325 va HSEEPdagi "rejalashtirish-mashqlar baholash-takomillashtirish" elementlari qiyoslandi.

Uchinchidan, fuqaro muhofazasi xodimining ish jarayoni vazifalarga ajratilib, har bir vazifa uchun bilim, amaliy ko'nikma, qaror qabul qilish va hamkorlik kompetensiyalari belgilandi.

Taklif etilayotgan baholash modeli to'rt darajadan iborat: 1) reaksiya - kursning dolzarbligi va o'quv muhiti; 2) o'rganish - bilim va amaliy ko'nikma o'sishi; 3) ish joyida qo'llash - reglament va harakatning o'zgarishi; 4) tashkiliy natija - javob vaqti, muvofiqlashuv va xato kamayishi.

Natijalar va muhokama. Tahlil amaldagi tizimning kuchli tomonlari sifatida huquqiy asos, markazlashgan ta'lim muassasalari, davriy kurslar va belgilangan mashq shakllari mavjudligini ko'rsatdi. Takomillashtirish talab etiladigan jihatlar esa o'quv ehtiyojini lavozim va xavf profili bo'yicha aniqlash, kurslar oralig'ida kompetensiyani saqlash, yagona baholash rubrikasi, o'quv natijasini ish joyida kuzatish va idoralararo mashqlardan olingan saboqlarni umumlashtirishdir.

Kompetensiya modeli uch qismda qurilishi maqsadga muvofiq: barcha xodimlar uchun bazaviy modullar; lavozimga xos funksional modullar; obyekt va hudud xavfiga xos maxsus modullar. Bazaviy blok huquqiy asoslar, xabar berish, shaxsiy xavfsizlik, birinchi yordam va axborot almashinuvini qamrab oladi. Funksional blok boshqaruv, razvedka, evakuatsiya, aloqa, muhandislik yoki tibbiy vazifaga moslanadi. Maxsus blok esa seysmik, gidrometeorologik, yong'in-portlash, kimyoviy yoki radiatsion xavf ssenariylarini o'z ichiga oladi.




1-rasm. Fuqaro muhofazasi xodimining uzluksiz kasbiy tayyorgarlik sikli.

Uzluksiz sikl har yili qisqa diagnostikadan boshlanadi. Xodimning lavozimi, obyekt xavf pasporti, avvalgi mashq natijalari va me'yoriy yangiliklar asosida shaxsiy o'quv marshruti shakllanadi. Nazariy blokni masofaviy formatda o'zlashtirish ishdan uzoqlashishni kamaytiradi; auditoriya va poligon vaqti esa keys, shtab o'yini va amaliy harakatga ajratiladi. Mashqdan so'ng darhol debriefing o'tkazilib, "aniqlangan kamchilik - mas'ul - chora - muddat - qayta tekshiruv" shaklida takomillashtirish rejasi tuziladi.

Kompetensiya	O'quv usuli	Baholash vazifasi	Ko'rsatkich	Davriylik
Xavfni baholash	Keys va GAT	Xavf zonasini belgilash	Aniqlik; vaqt	Yiliga 1 marta
Boshqaruv qarori	Shtab o'yini	Kuch-vositani taqsimlash	Vaqt; asoslilik	Yarim yilda
Idoralararo aloqa	Qo'shma mashq	Xabar va so'rov almashish	Kechikish; yo'qotish	Yiliga 1 marta
Evakuatsiya	Obyekt mashqi	Marshrut va hisob	Qamrov; xavfsizlik	Yarim yilda
Birinchi yordam	Trenajy or	Saralash va yordam	Algoritm; vaqt	Yiliga 1 marta
Hujjatlashtirish	Elektron simulyatsiya	Jurnal va hisobot	To'liqlik; xatolar	Chorakda mikro-mashq

1-jadval. Kompetensiya, o'quv usuli va baholash o'rtasidagi bog'liqlik.

Aralash ta'lim bir formatni boshqasi bilan almashtirmaydi, balki ularni vazifaga ko'ra taqsimlaydi. Masofaviy blok qonunchilik va algoritmni yangilaydi; auditoriya mashg'uloti noaniq vaziyatda qaror va muloqotni rivojlantiradi; simulyatsiya va poligon psixofiziologik bosim ostidagi harakatni tekshiradi; ish joyidagi audit esa bilimning obyekt rejasiga tatbiqini baholaydi. Barcha natijalar yagona raqamli portfolioda saqlanib, keyingi qayta tayyorlash mazmunini avtomatik shakllantiradi.



2-rasm. Fuqaro muhofazasi xodimlarini aralash tayyorlash arxitekturasini.

Tizimni takomillashtirish bo'yicha takliflar.

- har bir vazirlik va idora uchun fuqaro muhofazasi kompetensiyalar reyestri ishlab chiqilishi kerak. Reyestr lavozim vazifasi, xavf turi, talab etiladigan daraja va baholash usulini belgilaydi. Shu asosda yangi tayinlangan xodim uchun boshlang'ich diagnostika, tajribali xodim uchun esa kamchilikka yo'naltirilgan qayta tayyorlash rejasini tuziladi.

- uch yillik kurs davriyligi yillik mikroo'quv, choraklik qisqa mashq va obyekt darajasidagi ssenariylar bilan to'ldirilishi lozim. Bunda markaziy ta'lim muassasasi metodologiya, instruktorlarni tayyorlash va yakuniy sertifikatlashni; vazirlik va idoralar ichki koordinatorlari esa ish joyidagi mashq va portfolio ma'lumotlarini yuritishni ta'minlaydi.

- sertifikat faqat test natijasi asosida emas, kamida bitta amaliy vazifa va ssenariyli mashq natijasi asosida berilishi maqsadga muvofiq. Baholash varag'ida kuzatiladigan harakatlar, vaqt me'yori, kritik xato va xavfsizlik shartlari oldindan belgilanadi. Instruktorlararo tafovutni kamaytirish uchun video-namunalar, yagona rubrika va baholovchilar kalibrovkasi joriy etiladi.

- har bir yirik mashqdan keyin HSEEP mantig'iga yaqin "natijalar hisoboti va takomillashtirish rejasi" tayyorlanishi, kamchiliklar yopilguniga qadar monitoring qilinishi kerak.

- vazirliklar o'rtasida ssenariylar banki va maxfiy bo'lmagan saboqlar repozitoriysi yaratilishi lozim.

- o'quv sifatini mustaqil ekspertlar, ta'lim muassasasi va buyurtmachi idora ishtirokida davriy audit qilish mexanizmi joriy etiladi.

- raqamli platforma shaxsiy ma'lumotlarni himoya qilish, rollarga asoslangan ruxsat va rezerv ishlash talablariga javob berishi shart. Platforma maqsadi hisobot ko'paytirish emas, kim qaysi vazifaga tayyor, qaysi kompetensiya eskirgan va qaysi obyektida takroriy kamchilik borligini ko'rsatishdir.

- instruktorlarning o'zi uchun "trenerlar treningi" yo'lga qo'yilib, ssenariy dizayni, kattalar pedagogikasi, debriefing va xolis baholash kompetensiyalari sertifikatlanishi zarur.

Xulosa. Vazirlik va idoralarda fuqaro muhofazasi xodimlarini tayyorlash va qayta tayyorlash tizimini takomillashtirish uchun kurslar sonini oshirishning o'zi yetarli emas.

Asosiy vazifa - tayyorgarlikni lavozim va xavf profiliga mos, uzluksiz, amaliy va natijasi o'lchanadigan tizimga aylantirish. Kompetensiya reyestri, aralash ta'lim, ssenariyli mashq, yagona baholash rubrikasi, raqamli portfolio va takomillashtirish rejasi bir-biriga bog'langandagina o'quv natijasi tashkilotning real tayyorligiga aylanadi.

Taklif etilgan model amaldagi huquqiy va institutsional asoslarni inkor etmaydi; aksincha, davriy malaka oshirishni kurslar oralig'idagi mikroo'quv va mashqlar bilan to'ldiradi. Keyingi tadqiqotlarda E indeksi vaznlarini turli vazirlik va obyektlardagi pilot mashqlar ma'lumotlari asosida kalibrlash, shuningdek raqamli portfolio joriy etilgandan keyingi kompetensiya saqlanishini uzoq muddatli baholash maqsadga muvofiq.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining 2000 yil 26 maydagi 80-II-son "Fuqaro muhofazasi to'g'risida"gi Qonuni. URL: <https://lex.uz/docs/32994> (murojaat sanasi: 12.08.2026).
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019 yil 9 sentyabrdagi 754-son "Aholini favqulodda vaziyatlarda harakat qilishga va fuqaro muhofazasi sohasida tayyorlash tartibini takomillashtirish to'g'risida"gi qarori. URL: <https://lex.uz/docs/4508476>.
3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 20 oktyabrdagi PF-185-son "Aholi va hududlarni favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Farmoni. URL: <https://lex.uz/docs/7777239>.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2026 yil 3 apreldagi PQ-123-son "Favqulodda vaziyatlardan muhofaza qilish sohasida kadrlar tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori.
5. ISO 22398:2013. Societal security - Guidelines for exercises. Geneva: International Organization for Standardization, 2013.
6. Federal Emergency Management Agency. Homeland Security Exercise and Evaluation Program (HSEEP) Doctrine. Washington, DC: FEMA, 2020.
7. FEMA Preparedness Toolkit. HSEEP Resources: Exercise Evaluation and Improvement Planning. URL: <https://preptoolkit.fema.gov/web/hseep-resources>.
8. ISO 22325:2016. Security and resilience Emergency management - Guidelines for capability assessment. Geneva: ISO, 2016.
9. ISO 22320:2018. Security and resilience Emergency management - Guidelines for incident management. Geneva: ISO, 2018.
10. United Nations Office for Disaster Risk Reduction. Sendai Framework for Disaster Risk Reduction 2015–2030. Geneva: UNDRR, 2015.
11. O'zbekiston Respublikasi Favqulodda vaziyatlar vazirligi. FVV Akademiyasi huzuridagi Fuqaro muhofazasi instituti to'g'risida ma'lumot. URL: <https://gov.uz/fvv/departments/subordinate?active=1411>.